

DSQ huzuridagi Jamoatchilik kengashidan elektron hujjat aylanishiga o'tish bo'yicha takliflar

Elektron hujjat aylanishiga o'tish bo'yicha choralarni joriy va o'rta muddatli choralarga bo'lish taklif qilinmoqda.

I. Joriy choralar sifatida quyidagilar maqsadga muvofiqdir:

1. O'zarxiv tomonidan belgilangan hujjatlar ro'yxati va ularni saqlash muddatlarini inventarlashdan o'tkazish va quyidagi hujjatlarni belgilash:

- xo'jalik yurituvchi subyektning ixtiyoriga ko'ra saqlanishi lozim bo'lgan;
- davlat organlarining axborot tizimlarida faqat elektron shaklda saqlanishi majburiy bo'lgan;
- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qog'oz yoki elektron shaklda saqlanishi majburiy bo'lgan.

2. Vazirliklar va idoralarga yuridik va jismoniy shaxslardan hujjatlarni qog'oz shaklida so'rab olishni taqiqlash, agar zarur ma'lumotlar davlat va boshqa axborot tizimlarida mavjud bo'lsa.

3. Ko'rsatkichlarni DSQ, Davstatqo'm, Mehnat vazirligi va Xalq banki hisobotlari shakllariga kiritishda ushbu tashkilotlarning raqamli tizimlarini integratsiya qilish yo'li bilan yoki boshqa texnik usulda avtomatik tarzda ayni bir ko'rsatkichlar aks ettirilishini ta'minlash.

4. Davlat organlari mansabdor shaxslarining qog'oz shaklida hujjatlarni noqonuniy talab qilganlik uchun javobgarligini belgilash.

II. O'rta muddatli choralarni amalga oshirish uchun “O'zbekiston Respublikasida hujjat aylanishini raqamlashtirishni jadallashtirish konsepsiyasi”ni ishlab chiqishni **taklif qilish**, u xususan, quyidagilarni nazarda tutadi:

- yuridik ahamiyatga ega elektron hujjat aylanishi uchun to'laqonli normativ, tashkiliy va texnologik asosni yaratish;
- elektron hujjatlarni yaratish, muomalasi, saqlash va foydalanish uchun yagona uslubiyat;
- hujjatlarning qog'oz shaklidan elektron shakliga o'tishda navbat, o'tishning majburiyligi yoki ixtiyoriyligi;
- elektron imzo qo'llanishini kengaytirish uchun sharoit yaratish;
- elektron hujjat aylanishini milliy hujjat aylanishini xalqaro tizimlar bilan integratsiya qilish imkonini beruvchi EDIFACT standarti bo'yicha tashkil etish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat hokimiyati organlari va o'zaro hamkorliklarida elektron hujjat aylanishining yuridik ahamiyatini ta'minlash;

– O‘zarxiv bazasida hisob tizimlari ishlab chiquvchilari uchun majburiy tartibda ochiq shlyuz (API) qo‘ygan holda hujjatlarni shakllantirish va saqlash tizimlarini yaratish.

Birinchi bosqichda quyidagilarni elektron shaklga o‘tkazish taklif qilinadi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovarlarni yetkazib berish, ularning oldi-sotdisi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘zaro hamkorligini kuzatib boruvchi hujjatlar. Bunday hujjatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kontragent bilan shartnoma va unga tenglashtirilgan hujjatlar (masalan, buyurtma-naryad, savdolarida ishtirok etish uchun ariza), oferta, aksept;

– narxlar spetsifikatsiyasi;

– to‘lov uchun schyot;

– o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi;

– tovar-transport yukxati;

– tovarni qaytarishda rasmiylashtiriladigan hujjatlar.

2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat hokimiyati organlariga taqdim etiladigan hujjatlar:

a) faoliyatni amalga oshirish uchun (masalan, litsenziya olish);

b) davlat organining so‘roviga javob tariqasida (masalan, nazorat tadbirlari).

Normativ baza va texnologik platformalar va mexanizmlarning tayyorligiga qarab, ular amaliy aprobatsiya qilingandan so‘ng quyidagi hujjatlar elektron formatda majburiy bo‘lishi mumkin:

– birinchi bosqichda – davlat kapitali ishtirokidagi korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to‘lovchilar tomonidan tuziladigan bitimlarni rasmiylashtirish bo‘yicha hujjatlar;

– ikkinchi bosqichda – o‘rta biznes subyektlari tomonidan tuziladigan bitimlar bo‘yicha shunga o‘xshash hujjatlar;

– uchinchi bosqichda – kichik tadbirkorlik subyektlari.

Korxonada doirasidan chiqmaydigan ichki hujjatlar shaklini tanlashni – elektron yoki qog‘oz shaklda – korxonada ixtiyorida qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Konsepsiya asosida 2023-2030-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasida hujjatlarni raqamlashtirishni jadallashtirish bo‘yicha Yo‘l xaritasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.